

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI HUZURIDAGI IQTISODIY
JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENTI QOSHIDAGI ALKOGOL
VA TAMAKI BOZORINI TARTIBGA SOLISH INSPEKSIYASI FAOLIYATIGA OID
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 3-iyundagi PQ-204-son [qaroriga](#) muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alkogol va tamaki mahsulotlari bozorini tartibga solish hamda ularning noqonuniy aylanmasining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish to‘g‘risida” 2024-yil 3-iyundagi PF-84-son [Farmoniga](#) asosan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshida Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 3-iyundagi PQ-204-son [qarori](#) bilan Inspeksiya tuzilmasi tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi to‘g‘risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasining budjetdan tashqari jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri J.A. Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2024-yil 29-oktabr,
713-son

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-oktabrdagi 713-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi
kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi
to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda — Inspeksiya) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va javobgarligini, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Inspeksiya:

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (keyingi o'rinlarda — Departament) tarkibidagi mustaqil bo'linma hisoblanadi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari — Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshlig'iga (keyingi o'rinlarda — Bosh prokuror o'rinbosari — Departament boshlig'i) bo'ysunuv va hisobdorlik asosida faoliyat ko'rsatadi;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ulgurji savdosini litsenziyalash, ushbu sohasida litsenziya va xabardorlik tartib-taomillariga rioya etilishini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organi hisoblanadi.

3. Inspeksiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Inspeksiya yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasida ochiladigan hisobvaraqlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga ega bo'ladi.

5. Inspeksiyaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari barcha davlat organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

6. Inspeksiyaning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi, qisqartirilgan nomi — Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi;

b) ingliz tilida:

to'liq nomi — Inspectorate for regulation of the alcohol and tobacco market at the Department on Combating Economic Crimes at the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan, qisqartirilgan nomi — Inspectorate for regulation of the alcohol and tobacco market;

v) rus tilida:

to'liq nomi — Inspeksiya po regulirovaniyu alkogolnogo i tabachnogo rinka pri Departamente po borbe s ekonomicheskimi prestupleniyami pri Generalnoy prokurature Respubliki Uzbekistan, qisqartirilgan nomi — Inspeksiya po regulirovaniyu alkogolnogo i tabachnogo rinka.

7. Inspeksiya o'z faoliyatini har qanday davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda, faqat qonunchilik hujjatlariga bo'ysungan holda amalga oshiradi.

8. Inspeksiyaning moliyaviy va moddiy-texnik ta'minoti O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti hamda budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

9. Inspeksiyada shakllantirish va foydalanish tartibi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadigan budjetdan tashqari jamg'armalar tashkil etiladi.

10. Inspeksiya o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to'g'risidagi axborot bilan, shu jumladan, boshqa axborot bilan elektron shaklda almashadi.

2-bob. Inspeksiyaning vazifalari va funksiyalari

11. Quyidagilar Inspeksiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hamda uning nazoratini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritishda ishtirok etish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks dasturlarni amalga oshirish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkohol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek, alkohol mahsulotlarining ulgurji savdosi bo'yicha faoliyatni litsenziyalash;

davlat standartlari va qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy amal qilgan holda, iste'mol hamda texnik etil spirti, alkohol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnik va texnologik joriy etish ularga rioya etilishini nazorat qilish ishlarini tegishli vakolatli organlar bilan birgalikda tashkil qilish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkohol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning ulgurji savdosi sohasida litsenziya va xabardorlik tartib-taomillariga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring qilish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkohol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning aylanmasi hajmlarini monitoring va nazorat qilish bo'yicha zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish hamda rivojlantirish;

alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish hamda aylanmasining oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish, bunga imkon beruvchi sabablar hamda sharoitlarni bartaraf etish borasida vakolatli organlar bilan hamkorlik qilish;

alkogol va tamaki mahsulotlari uchun yangi namunadagi aksiz markalarini ishlab chiqishda qatnashish hamda ularning noqonuniy ishlab chiqarilishi va sotilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan profilaktika hamda tushuntirish ishlarini amalga oshirish.

12. Inspeksiya o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) iste'mol va texnik etil spirti, alkohol hamda tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hamda uning nazoratini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritishda ishtirok etish sohasida:

alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoatini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish, ushbu sohaga xalqaro standartlarni joriy qilish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkohol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish sohasida davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, ushbu yo'nalishda davlat organlari va tashkilotlari, ishlab chiqarish va savdo faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar bilan hamkorlik qilish;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining ulgurji va chakana savdosi tartibini belgilashda ishtirok etish;

b) iste'mol va texnik etil spirti, alkohol hamda tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va realizatsiya qilish sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks dasturlarni amalga oshirish sohasida:

vinochilik sohasida mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash, mahalliy alkohol, shu jumladan, vino mahsulotlarini ishlab chiqarishni va sotishni xalqaro maydonda targ'ib qilish maqsadida festivallar, ko'rgazmalar va yarmakalarni tashkil etish, shuningdek, ularda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishtirok etishiga ko'maklashish;

kolleksion vino va konyak mahsulotlarini zaxiraga qo'yish hamda sara milliy brend markalarining kolleksion mahsulotlarini auksion savdolariga qo'yishga ko'maklashish;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash, salbiy ta'sirining oldini olish borasida davlat organlari bilan hamkorlik qilish;

alkogol va tamaki bozorini tartibga solish sohasida xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy davlatlarning vakolatli tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlik qilish;

alkogol va vinochilik sohasida yuqori malakali xorijiy mutaxassislar hamda maslahatchilarni jalb qilish, tarmoq mutaxassislarining respublikaning yetakchi korxonalari, ilmiy-tadqiqot institutlarida malakasini oshirish va ularning qayta tayyorlashni, shuningdek, chet elda malakasini oshirishni tashkil etishda ko'maklashish;

alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarga tegishli degustatsiya hududlari turoperatorlarning yo'nalish dasturlariga kiritilishini tashkil etishda ko'maklashish;

v) iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bo'yicha faoliyatni litsenziyalash sohasida:

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bo'yicha faoliyatga qonunchilik hujjatlari talablari asosida litsenziya berish, qayta rasmiylashtirish hamda uning amal qilishini to'xtatib turish va qayta tiklash;

litsenziyani o'zgartirish, bekor qilish yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda litsenziyani bekor qilish to'g'risida sudga murojaat qilish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlar reyestrini yuritish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan iste'mol hamda texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, alkogol va tamaki mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi subyektlar tomonidan litsenziya va xabardorlik tartib-taomillari talablariga rioya etilishini o'rganish;

g) davlat standartlari va qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy amal qilgan holda, iste'mol hamda texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnik hamda texnologik joriy etish, ularga rioya etilishini nazorat qilish ishlarini tegishli vakolatli organlar bilan birgalikda tashkil qilish sohasida:

vakolatli organlar bilan birgalikda iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlariga standartlar, texnik va texnologik reglamentlar, sanitariya-gigiyena normalarini ishlab chiqish, joriy etish va takomillashtirish hamda ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan birgalikda korxonalarda alkogol, uzum, mevalar va reza mevalardan tayyorlanadigan alkogolli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy qilishga ko'maklashish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnik va texnologik normalarga rioya etilishini, mahsulotlarni saqlash sifatini hamda ularni aylanmasini, shu jumladan, foydalaniladigan xomashyo va yordamchi materiallar sifatini nazorat qilish;

iste'molchilarning ishlab chiqarilayotgan va sotilayotgan alkogol hamda tamaki mahsulotlarining sifati bo'yicha murojaatlarini tegishli vakolatli organlar bilan hamkorlikda o'rganib chiqish;

alkogol va tamaki bozorini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani, shuningdek, texnik va texnologik reglamentlar, xalqaro standartlarni takomillashtirish masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar yig'ilishlarida, konferensiya va seminarlarida ishtirok etish;

zarur asbob-uskunalar, priborlar, kimyoviy reaktivlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan jihozlangan, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda nazarda tutilgan barcha zarur fizik-kimyoviy, mikrobiologik va boshqa ko'rsatkichlarni tahlil qilish imkonini beruvchi ishlab chiqarish laboratoriyalari mavjudligini o'rganish;

d) iste'mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ularning ulgurji savdosi sohasida litsenziya va xabardorlik tartib-taomillariga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring qilish sohasida:

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning ulgurji savdosi sohasida litsenziya va xabardorlik tartib-taomillariga rioya etilishini tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar hamda axborot tizimi ma'lumotlari asosida monitoring qilish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning ulgurji savdosi bo'yicha litsenziya va xabardorlik tartib-taomillari o'z vaqtida hamda to'liq bajarilishini joyiga chiqqan holda o'rganish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari bilan hamkorlikda etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish va sotish holatlarini aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko'rish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi subyektlarga nisbatan ogohlantirish, moliyaviy sanksiya, litsenziya yoki xabardorlik hujjatining amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish kabi huquqiy ta'sir choralarini belgilangan tartibda qo'llash;

ishlab chiqarish va savdo sohasida iste'mol hamda texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarining nazorat xaridini amalga oshirish, vakolatli organlar bilan hamkorlikda ularning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini nazorat qilish maqsadida sinov laboratoriyalarida ekspertizadan o'tkazish;

litsenziya tartib-taomili bo'yicha yig'imlar va yillik litsenziya to'lovlari o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;

e) iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning aylanmasi hajmlarini monitoring va nazorat qilish bo'yicha zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish hamda rivojlantirish sohasida:

alkogol va tamaki bozori sohasini raqamlashtirish hamda rivojlantirish choralarini amalga oshirish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi va aylanmasini hisobga olish, xavflarni aniqlash, monitoring va nazorat qilish imkonini beruvchi axborot tizimini joriy etish hamda vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish choralarini ko'rish;

mulkdorlarning o'z mablag'lari hisobidan iste'mol va texnik etil spirti hamda alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda o'lchov uskunalarini va hisobga olish axborot tizimiga axborot uzatuvchi boshqa hisobga olish va qayd etish vositalarini o'rnatishda ko'maklashish;

ishlab chiqarish korxonalarida "Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimi, ishlab chiqarish hajmlarini hisobga olish axborot tizimi joriy etilishini ta'minlash;

j) alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish hamda aylanmasining oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish, bunga imkon beruvchi sabablar hamda sharoitlarni bartaraf etish borasida vakolatli organlar bilan hamkorlik qilish:

alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan iste'mol etil spirtidan maqsadli foydalanishini qonunchilikda belgilangan tartibda tekshirish va nazorat qilish;

iste'mol etil spirtining har bir ishlab chiqarilgan mahsulot namunalari ularning sifati normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida sinovdan o'tkazish hamda sinov natijalari bo'yicha iste'mol etil spirti mahsulotlarining muvofiqligi yoki ishlab chiqarish jarayoniga qayta ishlash uchun qaytarish to'g'risida xulosalar berish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnik va texnologik normalarga rioya etilishini, mahsulotlarni saqlash sifatini va ularning aylanmasini, shu jumladan, foydalaniladigan xomashyo va yordamchi materiallar sifatini nazorat qilish;

alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish hamda ularning aylanmasini aniqlash va chek qo'yishda huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari bilan hamkorlik qilish;

litsenziya hamda xabardorlik tartib-taomilini buzgan subyektlar, shuningdek, alkogol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq ma'lumotlarning markazlashgan hisobini yuritish, bunday holatlar xaritasini tuzish;

alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish hamda ularning aylanmasi ko'lamini, shuningdek, bunga imkon berayotgan sharoitlarni tahlil qilish hamda bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

z) alkogol va tamaki mahsulotlari uchun yangi namunadagi aksiz markalarini ishlab chiqishda qatnashish hamda ularning noqonuniy ishlab chiqarilishi va sotilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan profilaktika hamda tushuntirish yillarini amalga oshirish sohasida:

alkogol va tamaki mahsulotlari aksiz markalarining himoya darajasini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, yangi namunadagi aksiz markalarini ishlab chiqishda qatnashish;

aksiz markalari aylanmasi hisobini yuritish, eski namunadagi aksiz markalarini yo'q qilishda ishtirok etish;

huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari bilan hamkorlikda iste'mol hamda texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish va realizatsiya qilish holatlarining oldini olish choralarini ko'rish;

alkogol va tamaki mahsulotlari noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishga keng jamoatchilikni jalb qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish;

aholi o'rtasida alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish hamda sotish oqibatlari haqida targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish, ushbu sohada ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilish.

Inspeksiya qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Inspeksiyaning huquq va majburiyatlari

13. Inspeksiya o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Inspeksiyaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda kiritish;

tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolardan o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar bo'yicha materiallar, ma'lumotlar hamda tushuntirishlarni olish;

o'ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlari va tashkilotlarining ma'lumotlari bazasiga belgilangan tartibda ulanish va ulardan real vaqt rejimida foydalanish;

o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha zarur statistika ma'lumotlarni bepul olish;

alkogol va tamaki mahsulotlari sifatini belgilash hamda nazorat qilish bo'yicha qo'shma tadbirlar o'tkazish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, alkogol va tamaki mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini belgilangan tartibda tekshirish;

tekshirilayotgan tashkilotlarning rahbarlari va mutaxassislaridan ularning faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha zarur hujjatlar va tushuntirishlar olish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha hujjatlarni tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, alkogol hamda tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi sohasida litsenziya va xabardorlik tartib-taomillarini buzgan subyektlarga nisbatan huquqiy va moliyaviy ta'sir choralarini qo'llash;

soliq organlaridan alkogol va tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qiluvchi subyektlar haqidagi (savdo nuqtalari soni, ularni joylashuv joyi va boshqalar) ma'lumotlarni so'rab olish va hisobini olib borish;

zarur hollarda, tekshirilayotgan tashkilotlarga aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish, shuningdek, davlat standartlari va texnik reglamentlar talablariga javob bermaydigan mahsulotlar ishlab chiqarilishi hamda sotilishini to'xtatish to'g'risida taqdimnoma kiritish;

qonunchilikka asosan iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek, alkogol va tamaki mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va xabarnoma hujjatining amal qilishini to'xtatib turish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish yoki mazkur masalalarda sudlarga arizalar bilan murojaat qilish.

Inspeksiya qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

14. Inspeksiya o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishi, shuningdek, alkogol hamda tamaki bozorini tartibga solish bo'yicha davlat siyosatini samarali amaliy amalga oshirilishi uchun javob beradi.

15. Inspeksiya quyidagilarga majbur:

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni o'z vaqtida hamda sifatli bajarish;

davlat, tijorat sirlarining hamda nazorat obyektlarining qonunchilik bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash.

16. Inspeksiya xodimlariga ushbu Nizomda belgilanmagan vazifalarni topshirish hamda faoliyatiga bog'liq bo'lmagan vazifalarga jalb etish taqiqlanadi.

4-bob. Inspeksiya faoliyatini tashkil etish

17. Inspeksiyaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishgan holda Bosh prokuror o'rinbosari — Departament boshlig'ining taqdimnomasiga asosan Bosh prokuror tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi.

18. Inspeksiya boshlig'i maqomi, mehnatga haq to'lash shartlari, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish sharoitlari bo'yicha Departament boshlig'i o'rinbosariga tenglashtiriladi.

19. Inspeksiya xodimlari Inspeksiya boshlig'ining taqdimnomasiga asosan Bosh prokuror o'rinbosari — Departament boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

20. Prokuratura organlari xodimlari xizmatda qoldirilgan holda Inspeksiyada lavozimga tayinlanishi mumkin. Bunda lavozimga tayinlangan xodimning faoliyat davri navbatdagi darajali unvon berish, ko'p yillik xizmati uchun ustama haq to'lash, maoshini belgilash, pullik ta'minot va pensiya tayinlash huquqini berish uchun prokuratura organlaridagi xizmat stajiga qo'shib hisoblanadi, shuningdek, darajali unvonlar va mehnatning alohida sharoitlari uchun ustamalar to'lanadi.

21. Inspeksiyada xizmatni o'tash tartibi Bosh prokuror tomonidan belgilanadi. Bunda xodimlarni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etishda Departament organlariga xizmatga qabul qilish va xizmatdan bo'shatish talablari hamda shartlari tatbiq etiladi.

22. Inspeksiya boshlig'i:

Inspeksiya faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi hamda Inspeksiyaga yuklangan vazifa va funksiyalarning samarali bajarilishini ta'minlaydi;

Inspeksiyaga yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Inspeksiya vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha buyruq, ko'rsatma va farmoyish qabul qiladi;

xodimlarni xizmat safarlariga yuborish to'g'risida buyruq chiqaradi, xodimlarni xorijiy davlatlarga xizmat safariga yuborish masalalari bo'yicha Bosh prokuror o'rinbosari — Departament boshlig'iga taklif kiritadi;

Bosh prokuror o'rinbosari — Departament boshlig'iga Inspeksiya xodimlarini ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish va boshqa ishga o'tkazish yuzasidan takliflar kiritadi;

Inspeksiya xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish, rag'batlantirish hamda davlat mukofotlariga taqdim etish haqida takliflar kiritadi;

Inspeksiya faoliyatini rejalashtirishni tashkil qiladi, Inspeksiya va tarkibiy bo'linmalarining ish rejalarini tasdiqlaydi;

Inspeksiya tarkibiy bo'linmalari boshliqlarining hisobotlarini eshitadi;

Inspeksiya faoliyatiga oid masalalar yuzasidan tezkor yig'ilishlar o'tkazadi;

boshqa davlat organlari va tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, shuningdek, chet el davlatlari vakolatli organlari bilan hamkorlik to'g'risida kelishuvlar va boshqa shartnomalar tuzadi;

Inspeksiya faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash choralari ko'radi va nazorat qiladi;

Inspeksiya xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qiladi.

Inspeksiya boshlig'i qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

23. Inspeksiya xodimlarini rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralari qo'llash Inspeksiya xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish vakolatiga ega bo'lgan Bosh prokuror va Bosh prokuror o'rinbosari — Departament boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

24. Inspeksiyaning boshqaruv xodimlari tibbiy xizmat sharoitlari va ijtimoiy himoya choralari bo'yicha Departament organlari xodimlariga tenglashtiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

25. Inspeksiya faoliyatiga noqonuniy aralashish yoki to'sqinlik qilish, noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish yoki taqdim etishdan bo'yin tovlash, shuningdek, Inspeksiyaning

mansabdor shaxslarini qonunchilik hujjatlari bilan yuklanmagan vazifalarni bajarishga majburlash hamda ularga har qanday shaklda ta'sir ko'rsatish taqiqlanadi va qonunchilikda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

26. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-oktabrdagi 713-son qaroriga
2-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasining
budjetdan tashqari jamg'armasi to'g'risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasining (keyingi o'rinlarda — Inspeksiya) budjetdan tashqari jamg'armasini (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) tashkil etish, Jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

2. Jamg'arma yuridik shaxs tashkil etmagan holda, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armasi shaklida, mablag'lardan Inspeksiyaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladi.

2-bob. Jamg'arma mablag'larini shakllantirish

3. Jamg'arma mablag'lari quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarganlik yoki iste'mol etil spirti hamda alkogol mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi uchun to'lanadigan jarima summasining 50 foizi;

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, ulgurji va chakana savdo yo'nalishida litsenziyalash hamda xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarga solinadigan jarimalar;

iste'mol va texnik etil spirtidan maqsadsiz foydalanilganlik uchun undiriladigan moliyaviy jarima summasining 20 foizi. Bunda soliq organlari tomonidan qo'llaniladigan xarid qilingan iste'mol va texnik etil spirti hajmiga hisoblanadigan aksiz solig'i summasining 2,5 baravari miqdoridagi moliyaviy jarima summasidan kelib chiqiladi;

iste'mol va texnik etil spirtini transport vositalarida tashish bo'yicha litsenziya talablarini buzganlik uchun undiriladigan moliyaviy jarima summasining 50 foizi;

tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish huquqiga litsenziya berganlik uchun davlat boji, shuningdek, iste'mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishga, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosini amalga oshirishga litsenziyalar berish uchun to'lanadigan yig'imlar va yillik litsenziya to'lovlari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining kreditlari (qarzlari) hamda grantlari;

Jamg'armaning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklariga depozitga qo'yishdan olingan foiz tarzidagi daromadlar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

4. Jamg'armaga tushgan mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasida ochilgan maxsus hisobvaraqa jamlanadi.

5. Tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasidan ortiqcha haqiqiy tushumlar smetalarga tegishli o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng sarflanadi.

3-bob. Jamg'arma mablag'laridan foydalanish

6. Jamg'arma mablag'laridan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

a) Inspeksiya xodimlariga ko'p yillik xizmati uchun har oyda to'lanadigan ustamalarni to'lash uchun (rag'batlantirish koeffitsiyentini inobatga olgan holda lavozim maoshiga nisbatan koeffitsiyentlarda);

b) Inspeksiya xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun:

xodimlarni moddiy rag'batlantirish va ularga moddiy yordam ko'rsatish;

mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish borasida shaxsiy hissasini qo'shgan, mehnatda yuqori natijalarga erishgan, xizmat vazifalarini sidqidildan va samarali bajarayotgan malakali, tashabbuskor rahbar va xodimlarga lavozim maoshining 300 foizgacha bo'lgan miqdorlarda oylik lavozim maoshlariga (rag'batlantirish koeffitsiyentini inobatga olgan holda) belgilanadigan shaxsiy ustamalarni to'lash. Bunda, Inspeksiyaga prokuratura organlaridan o'tgan xodimlarga nisbatan 200 foizgacha etib belgilansin;

bayram sanalarida — Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Xotin-qizlar kuni, Navro'z, Yangi yil, diniy bayramlarda ("Ro'za hayiti" (Iyd-al-Fitr) va "Qurbon hayiti" (Iyd-al-Adha) bayramlarida hamda prokuratura organlari xodimlari kuni munosabati bilan xodimlarni oylik lavozim maoshining ikki barobari miqdorigacha mukofotlash;

pensiyaga chiqishi munosabati bilan pensiyaga chiqayotganda, xodimga lavozim maoshining uch barobari miqdorigacha qimmatbaho sovg'alar berish yoki shu miqdorda pul mukofoti to'lash;

xodimlarning mehnat ta'tili pulini, shuningdek, foydalanilmagan mehnat ta'tillari uchun pulli kompensatsiya pulining tegishli qismini to'lash;

v) Inspeksiya xodimlarini ijtimoiy himoya qilish uchun:

uy-joy bilan ta'minlanmagan xodimlarga amaldagi sarf-xarajatlar doirasida uy-joyni ijaraga berish shartnomasiga muvofiq uy-joylarni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan oshmagan miqdorda har oylik kompensatsiya to'lash;

jamoat transportidan (marshrut va yo'nalishli taksilardan tashqari) foydalanish xarajatlarini qisman qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida kompensatsiya to'lash;

xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish va ularning mehnati samaradorligini oshirish maqsadida har oyda ovqatlanish xarajatlarini qisman qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida kompensatsiya to'lash;

xodim vafot etganda, xodimning oylik lavozim maoshining o'n baravaridan oshmagan miqdorda bir yo'la moddiy yordam berish. Bunda moddiy yordam turmush o'rtog'iga to'lab beriladi, agar xodimning turmush o'rtog'i bo'lmasa, moddiy yordam farzandlariga yoki qonuniy vakillariga (vasiylari va homiylariga) yoxud ularning voyaga yetmagan farzandlarini asrab olgan shaxslarga to'lanadi, shuningdek, xodim turmush qurmagan bo'lsa, moddiy yordam uning ota-onasi yoki boqimandalari o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi;

alohida zaruratga ko'ra (yubiley sanalarida, xodimlar 50 va 60 yoshga to'lganda, baxtsiz hodisa, og'ir kasalligi sababli davolanish, sog'lig'ini tiklash, oilaning kam ta'minlanganligi va moliyaviy holatining og'irligi) lavozim maoshining ikki baravari miqdorida moddiy yordam berish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish uchun yilda bir marta (qoida tariqasida kuz oylarida) bazaviy hisoblash miqdorining sakkiz baravarigacha miqdorida moddiy yordam puli berish;

xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan lavozim maoshining (rag'batlantirish koeffitsiyentini inobatga olgan holda) ikki baravari miqdorigacha moddiy yordam berish;

xodimning yaqin qarindoshi (ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandi) vafot etganda — vafoti to'g'risida guvohnoma nusxasi taqdim etilganda, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining to'rt yarim baravari miqdorida moddiy yordam berish;

xodimlarning mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash va mehnatini muhofaza qilish;

g) Inspeksiyaning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun:

Inspeksiya bino va inshootlarini mukammal hamda joriy ta'mirlash, qo'shimcha obyektlarni (ma'muriy binolar va boshqalar) qurish, rekonstruksiya qilish, sotib olish, ijara hamda obyektlarni saqlash xarajatlari;

Inspeksiya faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq ma'muriy va xo'jalik xarajatlarini (kommunal xizmatlar, safar xarajatlari, avtotransport vositalarini ijara olish va boshqalar) qoplash;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirish, innovatsion va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, aloqa vositalari, hisoblash texnikasi, jihozlar, kompyuter hamda tashkiliy texnikani sotib olish, ta'mirlash, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish, dasturiy ta'minot vositalarini xarid qilish va ularga xizmat ko'rsatish;

O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari to'plamlarini, o'quv-metodik qo'llanmalar va matbaa mahsulotlarini sotib olish;

Inspeksiya faoliyati uchun inventarlar va xo'jalik jihozlari, avtotransport vositalari, ehtiyot qismlar hamda boshqalarni sotib olish, shuningdek, joriy va mukammal ta'mirlash;

konferensiya, simpozium, seminar, trening, yig'ilish, uchrashuv, bayram, madaniy va sport tadbirlarini tashkil qilish hamda o'tkazish;

iste'mol etil spirti ishlab chiqaruvchi korxonalarda etil spirtning sifatini aniqlash bo'yicha laboratoriyalarni tashkil etish, saqlash va xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatlari.

Bunda, laboratoriya xodimlariga Inspeksiyaning xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish shartlari tatbiq etiladi. Laboratoriya xodimlarning tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lash razryadlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishiladi;

d) Inspeksiyaning idoraviy xarajatlari uchun:

xorijiy delegatsiyalarni kutib olish va kuzatish bilan bog'liq xarajatlar uchun (mehmonlarni kutib olish va kuzatish, mehmonxona, transport, tarjimonlarni yollash xarajatlari hamda esdalik sovg'alarini xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va boshqalar);

Inspeksiya xodimlarining xorijiy davlatlarga xizmat safarlari xarajatlari, xizmat safari davridagi vakillik xarajatlariga (rasmiy qabullar, tarjimonlarni yollash hamda bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda esdalik sovg'alarini xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va boshqalar);

alkogol va tamaki mahsulotlarining nazorat xaridini amalga oshirish hamda ularni ekspertiza (test)dan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;

kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash (shu jumladan, xorijiy davlatlarda) hamda Inspeksiya xodimlarining chet el xizmat safarlariga borishi, shuningdek, xorijiy davlatlarda tajribasini oshirishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;

alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring va nazorat qilish imkonini beruvchi videokuzatuv vositalarini o'rnatish;

e) qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlarga.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilmagan bo'lsa, Jamg'arma mablag'lari hisobidan qo'shimcha shtat birliklarini joriy etish taqiqlanadi.

4-bob. Jamg'armani boshqarish

8. Jamg'arma mablag'lari Jamg'arma mablag'larini tasarruf etish bo'yicha kengashning (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma kengashi) qarori asosida sarflanadi. Kengash Jamg'armaning yuqori organi hisoblanadi.

9. Jamg'arma kengashining tarkibi Bosh prokuror o'rinbosari — Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

10. Jamg'arma kengashining qarori asosida Jamg'arma mablag'larini sarflashning aniq maqsadlari, yo'nalishlari va uning miqdorini ko'rsatgan holda, Inspeksiya boshlig'ining buyrug'i chiqariladi.

11. Jamg'arma kengashi:

Jamg'armaning keyingi yil uchun daromadlar va xarajatlar smetasini har yili 25-dekabrgacha tasdiqlaydi;

Jamg'armaning chorak yakuni bo'yicha daromadlari va mablag'larining xarajatlari to'g'risidagi hisobotlarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

Jamg'armaning faoliyatini, shu jumladan, mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishini, moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risida o'z vaqtida qaror qabul qilishni nazorat qiladi;

Jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

5-bob. Jamg'arma daromadlari va xarajatlari smetasini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish

12. Jamg'arma tushumlarining prognoz ko'rsatkichlari yil boshida kutilayotgan Jamg'armadagi qoldiq mablag'lar hamda moliya yili davomida tushadigan tushumlardan kelib chiqib, joriy yildagi prognoz ko'rsatkichlari belgilanadi.

13. Jamg'arma mablag'lari tushumi va xarajatlari to'g'risidagi hisobotlar belgilangan tartibda hamda muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etiladi.

14. Jamg'arma bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasiga tegishli o'zgartirishlar Jamg'arma kengashi tomonidan kiritiladi. Bunda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasiga qo'shimcha mablag' talab etilganda, unga o'zgartirishlar tushumlarning haqiqiy hajmidan kelib chiqqan holda, Jamg'arma kengashi tomonidan kiritiladi hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

15. Jamg'arma mablag'larining shakllantirilishi va maqsadli foydalanilishi bo'yicha Jamg'arma kengashi hamda Inspeksiya boshlig'i mas'ul hisoblanadi.

16. Jamg'arma mablag'larining maqsadli ishlatilishi yuzasidan nazorat qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

17. Jamg'armaning joriy yilda foydalanilmay qolgan mablag'lari keyingi moliya yiliga o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlariga olib qo'yilmaydi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

18. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.11.2024-y., 09/24/713/0878-son)